

Date: 5th May-2025

SANOAT ISHLAB CHIQRARISH KORXONALARIDA MEHNAT MUHOFAZASI
JARAYONLARINI TASHKIL VA FAOLIYAT BILAN BOG‘LIQ HOLDA YUZ
BERADIGAN HODISALARNING XODIMLAR SALOMATLIGIGA TA’SIRI

Qaraqulov Muzaffar

Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti Iqtisodiy munosabatlar va
xaridlar bo‘limi menejeri

Muzaff577@mail.com

(99) 083-63-45

Annotatsiya: Korxonada mehnat muhofazasi jarayonlarini tashkil va faoliyat bilan bog‘liq holda yuz beradigan hodisalarning xodimlar salomatligiga ta’siri o‘rganilgan. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar oqibatida sodir bo‘lgan o‘lim holatlarining yuzaga kelish sabablari va oqibatlari tahlil qilingan. Ishlab chiqarishda shikastlanish holatlari va statistikasi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: korxonada, mehnat muhofazasi, shikastlanish, baxtsiz hodisa, hodim, salomatlik, kasb kasalliklari.

Dunyo bo‘ylab ishsizlik muammosi kundan-kunga og‘irlashib bormoqda, ayniqsa, taxminan 200 millionga yaqin odamning ishsizligi jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikka jiddiy tahdid solmoqda. Bu holatni bartaraf etish uchun ish joylarini tashkil etish va mehnat bozorini to‘liq ish bilan ta‘minlash masalalari dunyoning barcha mintaqalarida dolzarb bo‘lib, ularni hal qilish global iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Shu o‘rinda, ish joylarida inson xavfsizligini ta‘minlash, ishchilarning huquqlarini himoya qilish va ularning salomatligini kuzatishning ustuvor maqsadga aylanishi muhim ahamiyatga ega.

Dunyoning ko‘plab mintaqalarida ayollar uchun mehnat bozori imkoniyatlari kam baholangan. Ayollar ko‘p hollarda kam maoshli, mavjud ish joylarida ishlashga majbur bo‘lishadi. Ularning ko‘pchiligi oilaviy va ijtimoiy mas‘uliyatlari bilan bog‘liq sabablar tufayli ish bozoridagi yuqori baho va malaka talab qiluvchi lavozimlarga joylashish imkoniga ega emas. Bundan tashqari, ish joylarida ekologik me‘yorlar va atrof-muhit bilan bog‘liq xavfsizlik standartlarining buzilishi, ishchilarning sog‘ligi va xavfsizligiga zarar keltirishga sabab bo‘ladi. Shu bois, ish joylarida ekologik standartlarga rioya qilish, yashil ish o‘rinlarini barpo etish va ishchilar uchun to‘liq xavfsiz muhit yaratish zarur.

XMT 1999 yil 87-sessiyasida to‘rt asosiy maqsadli mamlakatlarning barqaror iqtisodiy o‘rinishni ta‘minlashga qaratilgan “Munosib mehnat” (Desent Work) dasturini joriy etdi.

Munosib mehnat - bu ishchilarning mehnat xavfsizligi va mehnatga haq to‘lash shartlariga qat’iy amal qilish, huquqlar saqlangan holda ish bilan ta‘minlash munosabatlaridir.

Munosib mehnat nafaqat ijtimoiy adolat tamoyillari, balki iqtisodiyotning barqaror o‘rinishi va rivojlanishi, jamiyatda manfaatlar uyg‘unligini ta‘minlovchi shuningdek, xalqaro



Date: 5th May-2025

hamjamiyatning umumiy farovonlikni oshirish yo'lidagi quyidagi muhim omillarini o'z ichiga oladi:

- yangi ish o'rinlarini tashkil etish - ishga joylashish imkoniyatining cheklanganligi sababli hech kimni o'z xohlagan ishidan qaytarmaslik;
- mehnat huquqi, shu jumladan eng kam ish haqi masalasi - ishchilarning huquqlariga odil va qulay sharoitlar, dam olish kunlari, 8 soatlik ish kunlari va ular oilasining qadr-qimmatini kamsitmaslik;
- ijtimoiy himoya - barcha ishchilar xavfsiz ish sharoitlariga, yetarli bo'sh vaqt va dam olishga, sog'liqni saqlash, nafaqa va ota-ona ta'tillari kabi imtiyozlardan foydalanish;
- ijtimoiy muloqot - ishchilar kasaba uyushmalari orqali ish joyidagi demokratiyani amalga oshirishi va mehnat sharoitlari shuningdek, milliy va xalqaro mehnat siyosati bo'yicha muzokaralar olib borishi.

Mazkur global islohotning dolzarbligi hatto, BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) 8-qismida ham o'z aksini topgan. Bu esa, ish joylarida mehnat unumdorligini oshirish, ishsizlik darajasini pasaytirish, moliyaviy xizmatlar va imtiyozlardan foydalanish imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan global chora-tadbirlarning davomi edi.

Mintaqalarda 2030 yilgacha barcha ayollar va erkaklar uchun to'liq, samarali ish bilan ta'minlashga ko'maklashish natijasida munosib mehnat tamoyilining rivojlantirishga erishishni maqsad qilgan. XMT kun tartibidagi muammolardan yana biri qashshoqlikni kamaytirish va ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari ham o'rin olgan.

Mazkur murakkab mehnat munosabatlarini tartibga solishda ijtimoiy samaradorlikni muntazam rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Har bir ishlab chiqarish korxonalaridagi mehnatni muhofaza qilish muhandislari ijtimoiy samaradorlikni oshirish uchun ishchilarga munosib mehnat shart-sharoitlari, ta'lim va malaka oshirish imkoniyatlarini taqdim qilish, ish joyida ijtimoiy himoya tizimlarini samarali ishlatish, shuningdek, mehnat munosabatlarining barqarorligini ta'minlash orqali ishchilarning ijtimoiy va iqtisodiy ravnaqini ta'minlaydi.

Yuqoridagi aytib o'tilgan bir qator mehnat munosabatlari jumladan, ishchi-xodimlar sog'lig'i va xavfsizligini ta'minlashni rag'batlantirish, tartibga solish, monitoring va audit o'tkazishni rivojlantirish maqsadida XMT tomonidan 7 oktyabr Butunjahon munosib mehnat kuni deb e'lon qilindi.

O'zbekiston XMTning 2014-2016 yillarga mo'ljallangan Munosib mehnat bo'yicha dasturini (Desert Work Sountry Country Programme of the Pepublic of Uzbekistan for 2014-2016) qabul qilgan. Mazkur dastur O'zbekiston Respublikasi Hukumati, O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi va Savdo-sanoat palatasining XMT bilan hamkorlikda bandlik masalalari, mehnat sharoitlari va ijtimoiy himoyalash, barcha ayollar va erkaklarni munosib mehnat bilan ta'minlash yo'nalishda xalqaro hamkorlikni kengaytirib yangi yo'nalishdagi XMT konvensiyalarini ratifikatsiyalash yo'nalishlarini qamrab oladi.

Mamlakatimizda munosib mehnat konsepsiyasini amalga oshirish borasida 2018 yil 20 avgustda PQ-3913-sonli "Mehnat organlari tuzilmasini takomillashtirish va fuqarolar mehnat huquqlarini himoya qilish va mehnatni muhofaza qilish tizimini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident farmoni imzolandi.



Date: 5th May-2025

Shuningdek mamlakatimizda munosib mehnat konsepsiyasining amaliyotdagi yechimlarini ilmiy jihatdan asoslash va rivojlantirish borasida bir qator mahalliy iqtisodchi-olimlarimizning ilmiy izlanishlari tahsinga sazovordir. Jumladan, G.Q.Abdurahmanova aynan, mazkur sohani ilmiy-uslubiy jihatlarini tadqiq etgan bo'lib, ish joylarida bir qator munosib mehnat mezonlari va ko'rsatkichlarini taklif etgan. Navbatdagi tadqiqotchilar S.S.G'oyibnazarov va X.X.Abdurahmanov ilmiy izlanishlarida munosib mehnatni tashkil etish bilan bog'liq "Yashil ish o'rinlari" siyosati ilgari suriladi. Bu tadqiqot ishida aynan, sanoatda inson xavfsizdigini ta'minlash masalalari jihatidan o'rgangan holda "Yashil mehnat muhiti" siyosatiga kengroq e'tibor qaratilgan.

So'ngi uch yilda ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisalar soni 1615 tani tashkil etdi, shulardan 301 ta o'lim, 24 mingdan ziyod fuqarolar mehnat huquqlari buzilganligi va majburiy mehnatga jalb etilganligi to'g'risida murojat etganlar. Ayniqsa, qayd etilayotgan muammolar iqtisodiyotning norasmiy sektorida hamon keskinligicha qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va Bandlik vazirligining mehnatni muhofaza qilish va mehnat sharoitlari ekspertizasi davlat inspeksiyalari negizida O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va Bandlik vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi tuzilishi "Xavfsiz va himoyalangan mehnat" chora-tadbirlar dasturini amaliyotga tadbiq etishni taqozo etdi.

Kasaba uyushmalari va ish beruvchilar ijtimoiy sherikligida mehnat konsepsiyasi doirasida keng ko'lamlı ishlar olib borilmoqda. Natijada ishchilarning mehnat qilish va erkin kasb tanlash huquqlari kafolatlanmoqda. Munosib mehnat konsepsiyasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va Bandlik vazirligi tomonidan mehnatkashlarni huquqiy jihatdan himoya qilish va ular murojaatlari yuzasidan tezkor amaliy choralar ko'rish ishlari amalga oshirilmoqda. Masalan, joriy yilda Kambag'allikni qisqartirish va Bandlik vazirligi kelgan 792888 ta murojaatlar ko'rib chiqilib, shundan 92,3 foizi ijobiy hal qilindi.


2023 yil mobaynida 5998 ta korxonada va tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha bosh mutaxassislar tomonidan mehnatni muhofaza qilish qoida va me'yorlariga rioya etilishi o'rganib chiqilgan va yozma ko'rsatmalar berilgan. O'rganish jarayonida 41260 qonunbuzilishlar aniqlangan. 2022 yil davomida O'zbekistonda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar oqibatida sodir bo'lgan o'lim holatlari soni 229 tani tashkil qiladi.

Natijalar

O'lim holatlari yuzasidan jinoiy javobgarlikka tortilgan mansabdor shaxslar soni 194 nafar, ma'muriy javobgarlikka tortilgan mansabdor shaxslar soni 121 nafarga teng. Quyidagi rasmda yaqin 5 yil davomida ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar oqibatida sodir bo'lgan o'lim holatlari soni bo'yicha tahlil natijalari keltirilgan.



Date: 5th May-2025




1-rasm. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar oqibatida sodir bo'lgan o'lim holatlari soni

2018-yildan boshlab taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, o'lim holatlari soni oshib borayotgani kuzatilmoqda. Misol uchun, 2018 yilda bunday holatlar soni 182 tani, 2019-yilda 199 tani, 2020-yilda 200 tani, 2021-yilda 238 tani tashkil qilgan.

Mamlakatimiz Prezidenti tashabbusi bilan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida yangi sanoat ob'ektlarini barpo etish, turar-joylar qurishni jaddalashtirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin, ish joylarida mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikning keskin tus olishi ishlab chiqarish sanoatida inson hayotini saqlashga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra 2023 yilda mamlakatimizda o'limga olib keladigan ishlab chiqarishdagi shikastlanishlar koeffitsienti har 1000 nafar xodimga nisbatan 0,44 ni tashkil etgan.



2-rasm. Ishlab chiqarishda shikastlanishlar koeffitsienti (har 1000 nafar xodimga nisbatan)

Agar mazkur ko'rsatkichni xalqaro amaliyot bilan solishtiradigan bo'lsak, Rossiya Federatsiyada – 0,139 (3 baravar kam), AQShda – 0,054 (8 baravar kam), Finlandiyada –

Date: 5th May-2025

0,038 (11 baravar kam), Yaponiyada – 0,02 (22 baravar kam), Buyuk Britaniyada – 0,006 (27 baravar kam)ni tashkil etgan .

Ish joylarida kasbiy sog‘liq masalalarining ahamiyati jiddiy hisoblanib, ayniqsa korxonalar va tashkilotlarda ishchi-xodimlarning kutilmagan xarajatlar qismida o‘z aksini topadigan yo‘qotishlar, moliyaviy va ruhiy zararlar uning ish samaradorligi hamda unumdorligiga keskin ta’sir qilayotgan bir qator sabab va oqibatlar mavjud.

Kasbiy sog‘liq munosabatlari iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qamrab oladi. U asosan, ish joylarida kasbiy xavf-xatarlarning oldini olish va ularni nazorat qilishga, har qanday ish bilan bog‘liq kasalliklar va baxtsiz hodisalarni kamaytirishga, uning ahamiyatini tobora ko‘proq odamlar anglab yetadigan jihatlarga qaratilgan. Bunga korxonalar rahbarlarining sog‘lom ish joylarini barpo etish orqali kasbiy sog‘liqni yaxshilashga yo‘naltirilgan korporativ madaniyatni mustahkamlashga bo‘lgan qiziqishining ortishi misol bo‘la oladi.

Masalan, XMT ma’lumotlariga ko‘ra, har yili 2 milliondan ortiq kishi kasalliklar va ish joyidagi baxtsiz hodisalar tufayli vafot etmoqda. Bundan tashqari, yiliga 200 milliondan ortiq kasbiy kasalliklar qayd etiladi. Xuddi shu tarzda, ofisdagi yuqumli bo‘lmagan kasalliklar ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita har bir mamlakat YaIMning 6 foizigacha yo‘qotishiga olib kelmoqda. Shuning uchun kasbiy sog‘liqni saqlash barcha korxonalar va davlat tomonidan kafolatlanishi lozim bo‘lgan ustuvor yo‘nalishdir.

Hududlar bo‘yicha taqqoslanganda, sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida eng yuqori ulush Toshkent shahri (43,4 foiz), Toshkent (8,4 foiz), Farg‘ona (7,1 foiz) va Samarqand (6,6 foiz) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Xulosa

Tadqiqot jarayonida men turlicha yondashuvlarni o‘rganib chiqdim va bir qator yo‘nalishlarini tadqiq etdim. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, mehnat xavfsizligiga doir amalga oshirilayotgan tadbirlar ko‘pincha normativ hujjatlarga asoslangan, ammo ishchilarning xavfsizlikka oid bilimlari va ularga bo‘lgan munosabatlari orqali tadbirlarning samaradorligini oshirish uchun qo‘shimcha ta’lim va treninglar o‘tkazish talab etiladi. Shuningdek, ish joyida xavfsizlik madaniyatini shakllantirish uchun shaxsiy mas’uliyat va yetarli madaniy omillar muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlandi.

Tadqiqot natijalaridan ko‘rsatilishicha, ishtirokchilarning mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha tadbirlarni bajarilishiga oid baholashlari turlicha bo‘lgan. Qarshi olingan natijalarga ko‘ra, tadbirlarni bajarilishini 1 baholab 4,9 foiz ishtirokchi, 2 baholab 5,4 foiz, 3 baholab 23,2 foiz, 4 baholab 45,8 foiz va 5 baholab 20,7 foiz ishtirokchilar baholagan.

Bu natijalardan, mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha tadbirlarning ko‘pchilik tomonidan qoniqarli darajada bajarilayotgani aniqlanadi. Ayniqsa, 4 va 5 ball bilan baholagan ishtirokchilarning umumiy ulushi 66,5 foizni tashkil etganligi, tadbirlarning ko‘pincha qanoatlanarli va muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ko‘rsatadi. Shunday bo‘lsa-da, 1 va 2 ball bilan baholagan ishtirokchilarning ulushi (10,3 foiz) mehnat xavfsizligi va muhofaza qilish tadbirlarida ba’zi kamchiliklar mavjudligini ishora qiladi, ya’ni bu sohadagi tadbirlarning ayrim ishchilar tomonidan e’tiborsiz qoldirilishi yoki samaradorligiga nisbatan shubhalarning mavjud ekanligini ko‘rsatadi. Bu natijalar



Date: 5th May-2025

mehnatni muhofaza qilish tadbirlarining amalga oshirilishiga munosabatlarni to'liq tahlil qilish va sohaga doir chora-tadbirlarning samaradorligini yanada yaxshilash uchun qo'shimcha tadqiqotlar olib borishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 areldagi "Mehnatni muhofaza qilish sog'asidagi xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil, 17-son.
2. "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligin boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risida"gi nizom // O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 6 iyundagi "Ishlab chiqarishdai baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligin boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risida nizom to'g'risida"gi qarori // [http:// lex.uz](http://lex.uz).
3. A.Zikriyoev. Monorgafiya. Inson kapitalini rivojlantirishda kasbiy sog'liq va mehnat xavfsizligini ta'minlash [Matn] «ZUXRA BARAKA BIZNES», 2022-205 bet.
4. Bilal Kaassis and Adel Badri. Development of a Preliminary Model for Evaluating Organizational Health and Safety in small and medium-sized enterprises. Safety journal February 1, 2018.
5. Xusainova N.A., Gafner V.V. Мониторинг становления профессиональной компетентности учителя безопасности жизнедеятельности. Автореферат диссертатсии на соискание ученой степени кандидата педагогических наук Екатеринбург – 2005.; Куликов О.Н., Ролин Е.И, Безопасност жизнедеятельности в строительстве, Москва, Академия, 2009.
6. G'oyipnazarov S.B. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda mehnatni muhofaza qilishning ilmiy asoslarini takomillashtirish. Iqt. fan. falsafa doktori (PhD). ilm. dar. olish uchun diss.. – T.: TDIU, 2018. Toshkent, 2018.
7. <http://www.gov.uz> (O'zbekiston Respublikasi Hukumati).
8. <http://www.stat.uz> (O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi).

